




CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*2021- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra
dastlabki ma'lumot*

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 433,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **105,0 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **959,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **83,0 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5 156,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,7%**), uyushmagan savdo tovar aylanmasi **318,0** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **138,7 %**) ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, foizda



O'sish sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

ENG YUQORI ULUSH

Navoiy sh.
2 184,5

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **34,0 %** ulush bilan **2 184,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Karmana t.
1 057,4

Xatirchi t.
729,9

Qiziltepa t.
694,2

Zarafshon sh.
642,3

Navbahor t.
310,6

Uchquduq t.
305,3

Nurota t.
296,2

Konimex t.
170,5

Tomdi t.
42,5

UMUMIY MA'LUMOT

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 433,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **105,0 %** ni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,7 %** ulush bilan **42,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	6 433,4	105,0	959,3	83,0	5 474,1	110,1
Navoiy sh.	2 184,5	101,0	684,2	64,2	1 500,3	136,6
Zarafshon sh.	642,3	110,9	26,6	214,2	615,7	108,6
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	1 057,4	107,0	173,3	5,2 m	884,1	92,6
Konimex	170,5	110,1	4,4	78,0	166,1	111,3
Qiziltepa	694,2	103,5	12,7	129,3	681,5	103,1
Navbahor	310,6	101,9	40,1	14,0 m	270,5	89,6
Nurota	296,2	109,4	4,5	107,3	291,7	109,4
Tomdi	42,5	103,3	0,6	103,2	41,9	103,3
Uchquduq	305,3	108,9	3,0	175,3	302,3	108,5
Xatirchi	729,9	108,3	9,9	49,3	720,0	110,1

2020- yilning mos davriga nisbatan chakana savdo aylanmasi o'sishining yuqori ko'rsatkichlari Zarafshon shahri (**110,9** %), Konimex (**110,1** %) va Nurota tumani (**109,4** %) tumanlarida qayd etildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Yirik korxonalar , foizda

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning mos davriga nisbatan **83,0 %** ni va **959,3** mlrd. soʻmni tashkil qildi. Bu esa, umumiy savdo hajmining **14,9 %** ulushiga toʻgʻri keldi.



Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda

Navbahor t. 40,1
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.soʻm


12,9

Karmana t. 173,3
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.soʻm


16,4

Navoiy sh. 684,2
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.soʻm

31,3



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, foizda

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 474,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **10,1 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **85,1 %** ni tashkil etdi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ulushga ega hududlar, foizda

Navoiy sh **1 500,3**
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm


27,4

Karmana t. **884,1**
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

16,2


Xatirchi t. **720,0**
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

13,2



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uchquduq (**99,0 %**), Tomdi (**98,6**), Xatirchi (**98,6 %**), Nurota (**98,5 %**) va Qiziltepa (**98,2 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **14,9 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahrida (**31,3 %**), Karmana (**16,4 %**), Navbahor (**12,9 %**) tumanlarida kuzatildi.



AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar–sentabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6 301,1** ming so'mni (2020- yilning mos davriga nisbatan **3,2** % ga oshdi) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Navoiy shahri (**14 740,2** ming so'm), Karmana (**8 153,0** ming so'm) va Uchquduq (**8 054,7** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Hajm, ming so'm	2020- yilning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	6 301,1	103,2
Navoiy sh.	14 740,2	98,8
Zarafshon sh.	7 539,0	109,7
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	8 153,0	104,4
Konimex	4 684,0	108,3
Qiziltepa	4 482,0	101,9
Navbahor	2 689,1	100,2
Nurota	3 127,5	107,6
Tomdi	2 795,0	100,5
Uchquduq	8 054,7	107,4
Xatirchi	3 590,2	106,6



Eng yuqori hajm,
ming so'm

Navoiy sh. – 14 740,2

Karmana t. – 8 153,0

Uchquduq t. – 8 054,7



Eng quyi hajm,
ming so'm

Nurota t. – 3 127,5

Tomdi t. – 2 795,0

Navbahor t. – 2 689,1


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **318,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **38,7 %** ga o'sdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **187,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **118,7%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **130,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **183,3 %**) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi, foizda



Uyushmagan savdo tovar aylanmasida ulushi katta hududlar, foizda



Uyushmagan savdo tovar aylanmasining ulushi va hajmi

Uyushmagan savdo

318,0 mlrd. so'm, 100 %

Dehqon bozorlari

187,7 mlrd. so'm, 59,0 %

Chorva bozorlari

130,3 mlrd. so'm, 41,0 %

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI

2021 - yilning yanvar-sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvida, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **187,7** mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida **130,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

* *Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT)ni qo‘shmagan holatda*

* *Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari*

	Jami, mlrd. so‘m	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	318,0	138,7	187,7	118,7	130,3	183,3
Navoiy sh.	81,7	137,3	81,7	137,3	-	-
Zarafshon sh.	1,2	11,6	1,2	11,6	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	83,5	166,2	7,4	153,0	76,1	167,6
Konimex	11,9	185,5	4,6	114,1	7,3	3 m
Qiziltepa	32,4	135,7	19,3	116,4	13,1	179,7
Navbahor	1,6	105,4	1,6	105,4	-	-
Nurota	17,0	171,4	5,7	123,5	11,3	2,1 m
Tomdi	2,0	92,6	2,0	92,6	-	-
Uchquduq	4,5	134,5	4,5	134,5	-	-
Xatirchi	82,2	133,0	59,7	116,8	22,5	2,1 m

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2021- yilning yanvar–sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **187,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**122,1** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



2,3
mlrd. so'm

Tuzlamalar



122,1
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari



12,4
mlrd. so'm

Quriltilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)



3,8
mlrd. so'm

Tovuq go'shti



12,2
mlrd. so'm

Non va non mahsulotlari



3,3
mlrd. so'm

Tuxum

7,8
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh, loviya, no'xat, guruch va boshqalar)



3,6
mlrd. so'm

Ziravorlar



2,5
mlrd. so'm

Sut va sut mahsulotlari

16,3
mlrd. so'm



Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-xashaklar




1,4
mlrd. so'm

Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi ko'chatlari)

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **130,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **102,2** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **26,2** mlrd. so'mni, ot va eshaklar **0,9** mlrd. so'mni, parranda va quyonlar **1,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,2 %** ni tashkil etib, **143,4** mlrd. so'mga yetdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan **5,7 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **84,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	143,4	105,7	21,6	172,1	121,8	99,0
Navoiy sh.	54,0	102,4	8,6	98,7	45,4	103,1
Zarafshon sh.	22,0	99,2	4,5	122,2	17,5	94,7
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	17,0	102,3	0,1	72,1	16,9	102,6
Konimex	2,5	100,5	-	-	2,5	100,5
Qiziltepa	8,8	99,8	-	-	8,8	99,8
Navbahor	20,6	160,7	8,4	-	12,2	95,0
Nurota	3,1	115,6	-	-	3,1	115,6
Tomdi	0,5	98,6	-	-	0,5	98,6
Uchquduq	4,8	72,8	-	-	4,8	72,8
Xatirchi	10,1	99,5	-	-	10,1	99,5

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2020- yil
yanvar-sentabr



6,4 %



93,6 %



2021- yil
yanvar-sentabr



6,0 %



94,0%

 Nodavlat mulk

 Davlat mulki

2020-yilning mos davri bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **6,4 %** dan **6,0 %** ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **143,4** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **105,7 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **134,8** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**94,0 %**) hamda **8,6** mlrd. so'm (**6,0 %**) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	143,4	100,0	134,8	94,0	8,6	6,0
Navoiy sh.	54,0	37,7	45,4	84,2	8,6	15,8
Zarafshon sh.	22,0	15,4	22,0	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	17,0	11,9	17,0	100,0	-	-
Konimex	2,5	1,8	2,5	100,0	-	-
Qiziltepa	8,8	6,1	8,8	100,0	-	-
Navbahor	20,6	14,3	20,6	100,0	-	-
Nurota	3,1	2,1	3,1	100,0	-	-
Tomdi	0,5	0,4	0,5	100,0	-	-
Uchquduq	4,8	3,3	4,8	100,0	-	-
Xatirchi	10,1	7,0	10,1	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 291,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **5,2 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **296,7** mlrd. so'mni (**27,1 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

1 291,3 mlrd so'm, 100 %

Yirik korxonalar


296,7 mlrd so'm, 23,0 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

994,6 mlrd so'm, 77,0 %



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda

23,0

Yirik korxonalar

77,0

Mikrofirma va kichik korxonalar




ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish Navbahor (**183,2 %**),
Konimex (**148,9 %**) va Qiziltepa (**135,0 %**) tumanlarida kuzatildi.

	Jami, mlrd. so'm	2020- yilning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yilning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yilning mos davriga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	1 291,3	94,8	296,7	72,9	994,7	104,2
Navoiy sh.	631,6	84,5	215,9	57	415,7	112,7
Zarafshon sh.	51,5	118,5	-	-	51,5	118,5
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	342,1	103,5	19,5	299,7	322,7	99,5
Konimex	9,0	148,9	1,2	63,1	7,8	189,4
Qiziltepa	109,5	135,0	-	-	109,5	135
Navbahor	75,6	183,2	60,1	300,3	15,5	73,0
Nurota	19,7	125,0	-	-	19,7	125,0
Tomdi	1,5	18,5	-	-	1,5	18,5
Uchquduq	14,0	51,6	-	-	14,0	51,6
Xatirchi	36,8	60,8	-	-	36,8	60,8

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Hisobot davrida davlat sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,15 %** ni tashkil qildi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **1 291,3** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **1 289,4** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **1,9** mlrd.so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkiga tegishlisi faqatgina Karmana tumanida (**0,6 %**), saqlanib qolinganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.